




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 2930,7 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,3 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2917,1 mlrd.so'mni (102,2 foiz), o'rmon xo'jaligida – 8,1 mlrd.so'mni (101,2 foiz), baliq xo'jaligida – 5,5 mlrd.so'mni (149,4 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi (115,6 foiz), Mirishkor (111,4 foiz), Yakkabog' (110,9 foiz), Kitob (110,2 foiz), Qamashi (109,8 foiz), Koson (105,8 foiz), tumanlarida kuzatildi. Kasbi (98,9), Chiroqchi (98,1), Dehqonobod (96,7), Muborak (92,9 foiz), Nishon (91,4foiz), Qarshi shahri (90,7 foiz), Shahrisabz (89,7 foiz), va G'uzor (81,5 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Chiroqchi tumanining ulushi 14,2 foizni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Koson va Yakkabog' tumanlari mos ravishda 10,1 foiz va 9,6 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Shahrisabz shahar (0,9 foiz) Qarshi shahar (1,0 foiz), Dehqonobod (3,4 foiz), Muborak (4,5 foiz), va G'uzor (5,1 foiz) tumanlarida qayd etildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 99,2 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 106,0 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 72,7 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,8 foizi – fermer xo'jaliklariga, 1,5 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tumanlar kesimida




Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

# Dehqonchilik

## Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini



## ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 89,6 foizi, sabzavotlarning 81,3 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 78,0 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.


## Chorvachilik



2018 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1331,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 106,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,2 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 139,6 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 6,9 foizga ko'p), 515,2 ming tonna sut (3,7 foizga), 217,6 mln.dona tuxum (9,5 foizga), 4,4 ming tonna jun (3,6 foizga), 162,1 (9,1 foizga) ming dona qorako'l teri ishlab chiqarildi.

**Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini  
ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi**




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 96,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 97,1 foizi, tuxumning 66,5 foizi, junning 92,0 foizi, qorako'l terining 76,9 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.




## Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1490,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 489,4 ming boshga, qo'y va echkilar – 4448,0 ming boshga, parrandalar – 5671,3 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 24,7 ming boshga (1,7 foizga), shu jumladan sigirlar – 3,0 ming boshga (0,6 foizga), qo'y va echkilar – 15,9 ming boshga (0,4 foizga), parrandalar – 797,4 ming boshga (16,4 foizga) ko'paydi.

## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



-  Fermer xojaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yining 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,0 foizi fermer xojaliklari hissasiga, 94,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 1,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,1 foizi fermer xojaliklariga, 87,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 7,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 5,8 foizi fermer xojaliklariga, 61,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 32,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

- (0371) 230-83-95
- (0371) 230-83-96